



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 2 ISS: 6 (2025)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI

TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS



№	MUNDARIJA	Page
1.	SUG'URTA XIZMATLARIGA BO'LGAN ISTE'MOL TALABINI OSHIRISHNING INNOVATSION YO'LLARI <i>Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich</i>	4
2.	O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORINING IQTISODIY GLOBALLASHUV JARAYONLARIGA RAQAMLASHTIRISHNING TA'SIR YO'NALISHLARI <i>Nomozova Qumri Isoevna</i>	9
3.	QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGINING SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA SUG'URTA XIZMATLARINING ROLI <i>PhD. dosent Kalenov K.T.</i>	14
4.	MARKAZIY OSIYODA TAKAFULNING VAKALAH MODELINI TADBIQ QILSIH IMKONIYATI <i>Fayzullayev Diyorbek Zafar o'g'li</i>	17
5.	INOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA RASSIYA FEDERATSIYASI BANK SUG'URTASINING XOZIRGI XOLATINING TAXLILI <i>Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i>	20
6.	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI <i>Baratova Dinora Alisherovna</i>	23
7.	O'ZBEKISTONDA KARBON BOZORI VA KARBON SUG'URTASINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI <i>Erkaboyev Yorbek Boirbekovich</i>	25
8.	УПРАВЛЕНИЕ ДЕНЕЖНЫМИ ПОТОКАМИ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ: СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И ВОЗМОЖНОСТИ ОПТИМИЗАЦИИ <i>Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Роишева Диёра Равшановна</i>	28
9.	ЦИФРОВОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ И ФИНТЕХ КАК ДРАЙВЕРЫ РОСТА ИНВЕСТИЦИОННЫХ СДЕЛОК В РЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ <i>Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Рахимбоева Сугдиёна Рахимбоевна</i>	33
10.	TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI CHAKANA XIZMATLARI VA UNING NAZARIY ASOSLARI <i>Alimov Umid O'ktambayevich</i>	37
11.	TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA ISLOM BANKCHILIGINI JORIY QILISHNING AHAMIYATI <i>Xaitov Shaxzod Sharipboyevich</i>	42
12.	TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI <i>Mamaraimova Rushana Rashidovna</i>	46
13.	O'ZBEKISTONDA BANK SOHASIDAGI ISLOHOTLAR: HOZIRGI MUAMMOLAR VA YUZAGA KELAYOTGAN IMKONIYATLAR <i>dotsent, Sung Tae Kyun</i>	50
14.	TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI <i>Yuldashev Fozil Turapovich</i>	57
15.	DAVLAT IQTISODIY SIYOSATINING INVESTISION MUHITGA TA'SIRI <i>Imomov Xamdilla Xamdamovich</i>	61
16.	O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMIDA BILVOSITA SOLIQQA TORTISH TAHLILI <i>Shirinov Sabir Erkinovich, Mirasimov Ershod Sunatullayevich, Kabirov Abdulla Maxmutovich</i>	63

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, iqtisodiyot fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash markazi rahbari, dots.).
10. Quldoshov Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, i.f.n. dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi rahbari, i.f.b.f.d.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, i.f.b.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida professori v.b. i.f.d.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU “Marketing” kafedrasida dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, i.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).



O'ZBEKISTONDA KARBON BOZORI VA KARBON SUG'URTASINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI

Erkaboyev Yorbek Boirbekovich

Toshket davlat iqtisodiyot universiteti, katta o'qituvchi
Email: yorbekerkaboyev@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida karbon bozori va karbon sug'urtasini joriy etishning iqtisodiy, huquqiy va institutsional imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Global iqlim o'zgarishi sharoitida uglerod chiqindilarini qisqartirish va "yashil iqtisodiyot"ga o'tish dolzarb vazifa sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan, maqolada xalqaro amaliyotda keng qo'llanilayotgan karbon bozori va karbon sug'urtasi mexanizmlarining mohiyati, ularning iqtisodiy samaradorligi hamda O'zbekiston sharoitida qo'llash istiqbollari yoritilgan.

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida karbon bozori va karbon sug'urtasini joriy etishning iqtisodiy, huquqiy va institutsional imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Global iqlim o'zgarishi sharoitida uglerod chiqindilarini qisqartirish va "yashil iqtisodiyot"ga o'tish dolzarb vazifa sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan, maqolada xalqaro amaliyotda keng qo'llanilayotgan karbon bozori va karbon sug'urtasi mexanizmlarining mohiyati, ularning iqtisodiy samaradorligi hamda O'zbekiston sharoitida qo'llash istiqbollari yoritilgan.

Kalit so'zlar: karbon bozori, karbon sug'urtasi, barqaror rivojlanish, ESG standartlari, yashil iqtisodiyot, iqlim xavfi, uglerod kreditlari, Parij kelishuvi.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the economic, legal, and institutional opportunities for introducing the carbon market and carbon insurance mechanisms in the Republic of Uzbekistan. In the context of global climate change, reducing carbon emissions and transitioning to a "green economy" are among the most urgent priorities. The study examines the essence of carbon markets and carbon insurance widely applied in international practice, their economic effectiveness, and the prospects for their adaptation to Uzbekistan's conditions.

The article proposes a set of policy recommendations for the gradual introduction of a national carbon market and carbon insurance system. In particular, it emphasizes the importance of drafting a "Carbon Market Law," establishing specialized insurance institutions, and implementing pilot projects in cooperation with international organizations.

Keywords: carbon market, carbon insurance, sustainable development, ESG standards, green economy, climate risk, carbon credits, Paris Agreement.

Абстрактный: В данной статье представлен научный анализ экономических, правовых и институциональных возможностей внедрения карбонового рынка и карбонового страхования в Республике Узбекистан. В условиях глобальных климатических изменений сокращение выбросов углерода и переход к «зелёной экономике» рассматриваются как приоритетные задачи. В исследовании раскрыта сущность механизмов карбонового рынка и карбонового страхования, их экономическая эффективность и перспективы применения в условиях Узбекистана.

В статье предлагаются рекомендации по поэтапному внедрению национального рынка углерода и системы карбонового страхования. Особое внимание уделено разработке закона «О карбоновом рынке», созданию специализированных страховых институтов и реализации пилотных проектов в сотрудничестве с международными организациями.

Ключевые слова: карбоновый рынок, карбоновое страхование, устойчивое развитие, стандарты ESG, зелёная экономика, климатический риск, углеродные кредиты, Парижское соглашение.

Kirish (Introduction/Введение).

So'nggi yillarda jahon hamjamiyati global iqlim o'zgarishi muammosini bartaraf etish va uning iqtisodiy—ekologik oqibatlarini yumshatish yo'lida jadal harakat qilmoqda. Parij kelishuvi (2015 yil) va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) kabi xalqaro hujjatlar davlatlar oldiga uglerod chiqindilarini kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish va "yashil iqtisodiyot"ga o'tish vazifalarini qo'ydi. Shu jarayonda karbon bozori va karbon sug'urtasi mexanizmlari iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, iqlim xavflarini boshqarish hamda tabiiy resurslardan samarali foydalanishning zamonaviy vositasi sifatida shakllanmoqda.

Karbon bozori — bu atmosferaga chiqariladigan uglerod (CO₂) miqdorini iqtisodiy boshqarish orqali ekologik barqarorlikka erishishni maqsad qilgan tizim bo'lib, u "uglerod kreditlari" yoki "yemissiya kvotalari" savdosiga asoslanadi. Ushbu bozor ishtirokchilari — davlatlar, kompaniyalar va investorlar — o'z chiqindilarini kamaytirish yoki kamaytirgan miqdorini boshqalarga sotish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu tizim nafaqat atrof—muhit muhofazasiga, balki yangi moliyaviy instrumentlar — karbon sug'urtasi va iqlim fondi kabi institutlarning rivojiga ham zamin yaratadi.

Karbon sug'urtasi esa iqlim o'zgarishi bilan bog'liq moliyaviy tавakkalchiliklarni (masalan, chiqindilar limiti buzilishi, tabiiy ofatlar, energiya manbalaridagi o'zgarishlar va h.k.) kamaytirishga qaratilgan

sug'urta turi hisoblanadi. Ushbu tur xalqaro bozorda ESG (Environmental, Social, Governance) standartlarini joriy etuvchi kompaniyalar tomonidan faol qo'llanilayotgan bo'lib, iqtisodiyotning deyarli barcha sohalarida "yashil moliya"ning ajralmas qismiga aylanmoqda.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda ekologik siyosatni kuchaytirish va uglerod chiqindilarini qisqartirish borasida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish konsepsiyasi (2019), "Atrof—muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri (2021), hamda BMTning iqlim tashabbuslariga qo'shilish mamlakatda karbon siyosatini rivojlantirish uchun institutsional zamin yaratdi. Biroq, hozirgi kunda milliy karbon bozori va sug'urta mexanizmlari hali shakllanmagan, bu esa tegishli huquqiy, moliyaviy va amaliy chora—tadbirlarni talab qiladi.

Shu bois, ushbu maqolada O'zbekiston sharoitida karbon bozori va karbon sug'urtasini joriy etishning iqtisodiy imkoniyatlari, huquqiy asoslari va amalga oshirish mexanizmlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot maqsadi — milliy iqtisodiyotning "dekarbonizatsiya" jarayonini qo'llab—quvvatlaydigan bozor vositalarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat. Shuningdek, maqolada xalqaro tajriba asosida O'zbekiston uchun eng maqbul modelni tanlash, ESG tamoyillarini sug'urta tizimiga integratsiya qilish va "yashil moliya" sektorini rivojlantirish yo'llari ko'rsatib o'tiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review). Ushbu adabiyotlar tahlilidan karbon bozori va karbon sug'urtasi konsepsiyalarini tadqiq qilish, ularning xalqaro va mintaqaviy tajribalarini o'rganish va O'zbekiston sharoitidagi mavjud hisobotlar, qonunchilik hujjatlari va loyiha materiallari asosida izohlash maqsad qilingan. Tahlil uchun quyidagi turdagi manbalardan foydalanildi:

Stern, N, The Economics of Climate Change: The Stern Review, karbon chiqindilarining iqtisodiy xavfi, bozor mexanizmlari orqali chiqindilarni kamaytirish samaralari tahlil qilingan. [1]

UNDP Uzbekistan, Green Transition and Low-Carbon Development in Uzbekistan, O'zbekistonda yashil iqtisodiyot, O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya salohiyati yetariliga, karbon siyosati uchun huquqiy baza yaratish lozimligi.

Sharipov Sh., Axmedov N., "O'zbekistonda ESG tamoyillarini joriy etish istiqbollari", ESG va sug'urta, sug'urta kompaniyalarida ESG standartlari iqlim tavadakkallarini kamaytirishi tahlil qilingan.

Qodirov I., "O'zbekistonda iqlim xavflarini sug'urtalashning huquqiy asoslari", sug'urta va huquq, sug'urta tizimini iqlim xavflariga moslashtirish milliy qonunchilikni takomillashtirishni talab qilish masalalari.

Murtazayev A., "Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda xalqaro moliyaviy institutlarning o'rni", O'zbekistonda yashil moliya, karbon bozori uchun moliyaviy institutlar (bank, sug'urta) ishtiroki muhim.

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha 2024-yil yakuni bo'yicha yillik hisobot. Yashil iqtisodiyotga o'tish va rivojlantirishni muvofiqlashtirish boshqarmasi Mualliflar: Shoxzod Islamov, Abdujalil Maxmudov, Toshkent 2025 yil. Dekarbonizatsiya bo'yicha uzoq muddatli strategiya (LTS) – bu mamlakatning kelgusi o'nlab yillar davomida issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish bo'yicha rejasini belgilovchi hujjatdir.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Metodi). Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda ekspert baholash, umumlashtirish, taqqoslash, tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlillar (Analysis/Analiz). Hozirgi vaqtga mos, manbalangan va amaliyotga yo'naltirilgan tahliliy yondoshuvni qo'llab, quyida mavzusiga oid bir necha turdagi tahlillar (siyosiy—huquqiy, iqtisodiy—bozor, texnik—MRV, sug'urta sektori, xavflar va amalga oshirish yo'l xaratlari) ga to'xtalamiz.

Siyosiy—huquqiy tahlil. O'zbekistonda milliy va xalqaro siyosiy iroda karbon siyosati uchun muhim baza yaratgan — mamlakat Parij kelishuvi majburiyatlarini qabul qilgan va bir qator davlat dasturlari hamda yoshil moliya mexanizmlari ustuvorlikka kiritilgan. Shu bilan birga, mamlakatda karbon birliklari va bozorni tartibga solish bo'yicha tizimni rasmiy ravishda joriy qilish bo'yicha yaqin yillarda amalga oshirilayotgan qonunchilik va initsiativavlar kuzatilmoqda. Natijada bu yo'nalish bo'yicha olib borilayotgan ishlar sezilarli ekanligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan milliy majburiyatlar (NDC) va milliy hisobotlar O'zbekistonda GHG (Greenhouse Gases—issiqxona gazlari) uchindilarini hisoblash va hisobot berish infratuzilmasini shakllantirish yo'lidagi asosni ko'rsatadi, bu MRV (measurement, reporting, verification—o'lchash, hisobot berish, tekshirish tizimi) va karbon krediti chiqarish uchun shart—sharoit hisoblanadi. Shu bilan birgalikda yaqin vaqtlarda qabul qilinayotgan yoki muhokama etilayotgan qonunchilikdagi o'zgarishlar (karbon savdosi—emissiyani cheklash to'g'risidagi aktlar) ichki bozorni tartibga solishni osonlashtiradi va xalqaro savdoga chiqish imkoniyatini yaratadi.

Iqtisodiy va bozor tahlili. O'zbekistonning qayta tiklanuvchi energiyalar salohiyati, yashil obligatsiya va xalqaro grantlar mavjudligi mamlakatda karbon kreditlari aylanmasi va ularning bozorini rivojlantirish uchun yaxshigina iqtisodiy asos beradi. Jadalolib borilayotgan islohotlar va to'g'ri bozor mexanizmi bilan mamlakat uchun importga va boshqa resurslardan oqilona foydalangan holda yuqori moliyaviy daromad olish imkoniyatlari mavjud. Bundan tashqari O'zbekistonda yashil obligatsiyalar va banklar ishtirokidagi yashil moliya tajribasi mavjudligi—bozordagi likvidlik va moliyalashtirish manbalari uchun yordamchi omillar yetarli ekanligini ko'rsatadi.

Texnik (MRV—Measurement, Reporting, Verification)- o'lchash, hisobot berish, tekshirish tizimi) tahlili. Mustahkam MRV tizimi — karbon bozorining eng asosiy talablaridan biri hisoblanib, O'zbekistonda MRV va milliy GHG inventarizatsiyasi bo'yicha ishlar olib borilmoqda, ammo ularni bozor talablariga to'liq moslashtirish uchun texnik standartlar va akkreditatsiya tizimi rivojlantirilishi talab etiladi. Milliy GHG inventarizatsiyasi va (Biennial transparency report BTR) mavjud — bu mustahkam asos, ammo MRV metodologiyalarini (Additionality, permanence, leakage) xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish talab etiladi.

Sug'urta sektoriga oid tahlil (Karbon sug'urtasi). Karbon sug'urtasi — karbon loyihalarining risklarini kamaytirishdagi muhim instrument bo'lib, O'zbekistonda uning joriy etilishi uchun sug'urta bozorini standartlar va regulyator vakolatlari doirasida tiklanishi kerak. Sug'urta mahsulotlari — daraxt ekish, RE (qayta tiklanuvchi energiya) loyihalari yoki karbon kreditlarining huquqiy monitoringi kabi sohalarida keng qo'llanilishi mumkin. Sug'urta kompaniyalari uchun iqlim riskini baholash qobiliyatini oshirish zarur, hamda sug'urta regulyatorlari va moliya tashkilotlari ESG integratsiyasi uchun standartlar yaratishi shart va lozim ekanligini taqozo qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-436-son qarorida belgilangan topshiriqqa asosan Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha yillik hisobot 2030-yilgacha har yili tayyorlanib chop etiladi. Mazkur hisobotda 2023-yil davomida yashil iqtisodiyot va yashil o'sish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, loyihalar va chora-tadbirlar haqida ma'lumot berilgan. Dekarbonizatsiya bo'yicha uzoq muddatli strategiya (LTS) – bu mamlakatning kelgusi o'nlab yillar davomida issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish bo'yicha rejasini belgilovchi hujjatdir. Bu strategiya Parij bitimi doirasidagi majburiyatlarining muhim qismi bo'lib, mamlakatlardan kam uglerodli rivojlanish strategiyalarini (LT-LEDS) ishlab chiqishni talab qiladi. Parij bitimi doirasida ko'plab davlatlar 2050–2060-yillargacha uglerod neytralligiga erishish majburiyatini olgan. Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan Jahon banki va Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankingi malakali mutaxassislarini jalb qilgan holda O'zbekistonning kam uglerodli rivojlantirish (dekarbonizatsiya) bo'yicha uzoq muddatli Strategiya loyihasi ishlab chiqilmoqda. Ma'lumot uchun: BMTning iqlim o'zgarishi bo'yicha Parij bitimining 4-moddasiga muvofiq barcha mamlakatlar o'zining iqlim sharoitlari va muammolaridan kelib chiqib, joriy asr o'rtasigacha mo'ljallangan uzoq muddatli kam uglerodli rivojlantirish (dekarbonizatsiyalash) strategiyasini ishlab chiqish belgilangan. Ma'lumot uchun: Iqlim o'zgarishi va taraqqiyot to'g'risidagi milliy hisobot 2023-yil noyabr oyida ishlab chiqilgan bo'lib, (Country Climate and Development Report – CCDR) Jahon bankingi o'ziga xos va takrorlanmas hisoboti bo'lib, iqlim o'zgarishi sharoitida barqaror rivojlanishga yordam beruvchi asosiy diagnostika vositasidir.[2]

Xulosa (Заключение/Conclusion). O'zbekistonda karbon bozori va karbon sug'urtasini joriy etish masalasi mamlakatning barqaror rivojlanish yo'lidagi muhim strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Jahonda global iqlim o'zgarishi va issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish dolzarb masalaga aylangan bir paytda, mamlakatimiz ham Parij kelishuvi doirasida belgilangan majburiyatlarini bajarishga intilayotgani muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, milliy iqtisodiyot tarmoqlarida karbon bozori va karbon sug'urtasi tizimini joriy etish nafaqat ekologik, balki iqtisodiy samaradorlikni ham ta'minlaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatadi, O'zbekistonda karbon bozorini rivojlantirish uchun muayyan shart-sharoitlar mavjud. Mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya manbalari (quyosh, shamol, biomassa va boshqalar) bo'yicha katta salohiyat mavjud bo'lib, bu loyihalar orqali karbon kreditlarini shakllantirish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, ESG standartlarini joriy etish jarayonlari, yashil iqtisodiyot strategiyasi va davlatning iqlim siyosati bunday bozor uchun huquqiy va institutsional asos yaratishga zamin bo'ladi.

Ba'zi to'siqlar ham mavjud: karbon hisobini yuritish va MRV (Monitoring, Reporting, Verification) tizimini joriy etishdagi qiyinchiliklar, iqtisodiy subyektlar va sug'urta kompaniyalarining bu sohadagi tajribasi yetarli emasligi, karbon narxini belgilash mexanizmlarining yo'qligi kabi omillar bu jarayonni sekinlashtirishi mumkin. Shuning uchun, ilk bosqichda xalqaro tajribadan foydalangan holda pilot loyihalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Karbon sug'urtasi tizimini joriy etish esa iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xatarlarni boshqarishning yangi usuli bo'lib, u ekologik loyihalarning barqarorligini ta'minlaydi. Bu sug'urta turi orqali investorlar va xo'jalik subyektlari o'z karbon loyihalarini moliyaviy xavflardan himoya qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda karbon bozori va karbon sug'urtasini joriy etish — mamlakatning yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini amalga oshirishda, xalqaro iqlim majburiyatlarini bajarishda va investitsiya muhitini yaxshilashda muhim omil bo'ladi. Buning uchun huquqiy baza yaratish, milliy MRV tizimini joriy etish, sug'urta kompaniyalarining salohiyatini oshirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30 yanvardagi "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-16-son farmoni. <https://www.lex.uz/docs/7369703>
2. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha 2024- yil yakuni bo'yicha yillik hisobot. Yashil iqtisodiyotga o'tish va rivojlantirishni muvofiqlashtirish boshqarmasi Mualliflar: Shoxzod Islamov, Abdujalil Maxmudov, Toshkent 2025
3. Stern, N, The Economics of Climate Change: The Stern Review. 2006
4. Sharipov Sh., Axmedov N., "O'zbekistonda ESG tamoyillarini joriy etish istiqbollari". 2023.
5. Qodirov I., "O'zbekistonda iqlim xavflarini sug'urtalashning huquqiy asoslari", 2024.
6. Murtazayev A., "Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda xalqaro moliyaviy institutlarning o'rni", 2021.
7. Rustam Azimov & Mirodil Mirsadikov. "Green Insurance in Uzbekistan – Current State, Challenges, and Development Prospects: A Theoretical Analysis". 8-th International Conference on Research in Business, Management and Finance. 16-18 may 2025. Rome, Italy.
8. Соболев О.С. "Зеленое" страхование: учет экологических факторов в деятельности российских страховщиков. Вектор юридической науки 8/2022.
9. Ермолаева А.С., Кулумбегова А.В. "Страхование экологических рисков ТЭК: опыт, проблемы и перспективы развития". Журнал "Страховое дело". 2021. № 1(334).
10. The Global Risks Report 2020 // World Economic Forum. <https://www.weforum.org/reports/the-global-risks-report-2020>